

## HIND CHUMCHUG‘I – PASSER INDUCUS JARD. ET SELBY VA DALA CHUMCHUG‘I – PASSER MONTANUS L. NING QIYOSIY BIOLOGIYASI

**Xudayberdiyev E. T.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,  
Biologiya fakulteti, 4 - bosqich talabasi Samarqand sh.  
E-mail: [elmurodxudoyberdiyev0109@gmail.com](mailto:elmurodxudoyberdiyev0109@gmail.com)

**Mamashukurov A.U**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,  
Zoologiya kafedrasи, PhD. Samarqand sh.  
E-mail: [1abdunabimamashukurov@gmail.com](mailto:1abdunabimamashukurov@gmail.com)

**Nasimova S.A**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,  
Zoologiya kafedrasи assistenti, Samarqand sh.  
E-mail: [nasimovasoniya22@gmail.com](mailto:nasimovasoniya22@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Tabiiy muhitning jadal sur’atlar bilan o‘zgartirilishi va antropogen biotsenozlarning barpo etilishi bugungi kunda tabiiy biogeotsenozlarning tarkibiy komponentlaridan biri qushlar faunasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, hozirgi kunda antropogen biotsenozlarda ommaviy qushlarning tarqalishi, soni, bioekologik va etologik xususiyatlarini aniqlash, ularning fe’l-atvorida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so‘zi:** hind chumchug‘i, dala chumchug‘i, uyalash.

Qushlarning hayoti va faoliyati bilan xalq xo‘jaligining ba’zi sohalari o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik bizni ularning hayotini, foydali yoki zararli faoliyatlarini o‘rganishga, ularni muhofaza qilishga, foydali qushlarni bog‘larga, dalalalarga va o‘rmonzorlarga jalgan qilishga da’vat etadi.

Qushlar bog‘lar va o‘rmon xo‘jaliklarida hasharotlarni yoppasiga qirib katta foyda keltiradi. Ko‘pchilik hasharotlarning soniga ta’sir etib qushlar ko‘p hollarda ekin maydonlarida hasharotlarning muvozanatini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, g‘allachilikning ashaddiy zarakunandalar bo‘lgan zararli kemiruvchilarning sonini muvofiqlashtirishda va sanitarlik ishlarida tungi va

kunduzgi yirtqich qushlarning ahamiyati beqiyosdir. Nihoyat ko‘pchilik qushlarning o‘zлari ovlanib inson hayoti uchun kata amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda hind chumchug‘ining Passer indicus bactrianus Jard. et Selby kenja turi uchraydi. Hind chumchug‘i uy chumchug‘iga shunchalik o‘xshab ketadiki, uni ko‘pchilik hollarda bu qushning kenja turi deb hsoblaydilar. Lekin uning biologiyasida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, uni alohida tur deb hisoblashga asos bo‘ladi [2].



Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra hind chumchuqlari asosan jarliklarda va daraxtlarda katta koloniyalar hosil qilib yashaydi. Aholi yashaydigan joylarda asosan tashlandaq binolar va odam kam joylarda uya quradi.

Hind chumchuqlarining daraxtlarda, laylaklar uyasining asosida, inson tomonidan qurilgan ob’ektlarda joylashgan uyalari sharsimon, sariq sog‘ tuproqli jarliklardi kovaklarda joylashgan ayrim uyalarning shakli kosacha ko‘rinishida bo‘ladi. Uyalarning o‘rtacha o‘lchamlari quyidagicha: erdan balandligi 257,9 sm, kirish teshigining diametri 61,6 mm, uyaning diametri 134,1 mm, uya lotogining diametri 84,0 mm, uya lotogining chuqurligi 56,9 mm (1-jadval).

Hind chumchuqlarining uya hayoti juda cho‘zilgan. May oyining oxiri iyun oylarida ba’zi qushlar endi uya qurishga kirishgan bo‘lsa, boshqalari esa tuxumlarini bosib yotgan bo‘ladi. Ba’zi uyalarda bu davrda allaqachon polaponlari tuxumdan chiqqan bo‘ladi [2]. Hind chumchuqlari odatda kulrang yoki qo‘ng‘irnamo po‘chog‘ida quyuq xollari bor bo‘lgan 5-8 ta ola-bula tuxum qo‘yadi [1].

Hind chumchug‘ining tuxumi dala chumchug‘ining tuxumiga o‘xshash bo‘lib, undan rangining tiniq bo‘lishi bilan farq qiladi.

### 1-jadval

#### Hind chumchug‘ining uya o‘lchamlari

No	Uyaning joylashgan o‘rni	Uyaning yerdan balandligi (sm)	Uyaning diametri (mm)	Uya lotogining diametri (mm)	Uya lotogoning chuqurligi (mm)	Uyaga kirish teshigining diametri (mm)
1	Devor yorig‘ida	168	132	75	49	78
2	Devor yorig‘ida	230	110	82	56	65
3	Tom shiftida	301	136	80	62	54
4	Tom shiftida	294	112	94	56	58
5	Tom shiftida	312	148	86	58	46
6	Daraxt kovagida	284	174	78	55	62
7	Tom shiftida	216	127	93	62	68
	<b>O‘rtacha</b>	<b>257,9</b>	<b>134,1</b>	<b>84,0</b>	<b>56,9</b>	<b>61,6</b>

Hind chumchug‘ining tuxumi dala chumchug‘ining tuxumiga o‘xshash bo‘lib, undan rangining tiniq bo‘lishi bilan farq qiladi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra hind chumchug‘i tuxumlarini hammasini to‘liq qo‘yib bo‘lmasdanoq bosishni boshlaydi. Shuning uchun ham uyadagi polaponlarining yoshi har xil bo‘ladi. Tuxumlarini bosishda ikkala qush ham qatnashadi. Olib borilgan kuzatishlarimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuxum bosish davrining dastlabki kunlarida tuxum bosish zichligi bir oz pastroq bo‘lib, tuxum bosishning so‘nggi kunlarida tuxum bosish zichligi oshadi. Inkubasiya davri 11-12 kun davom etadi.

Rivojlanishning uchinchi kunida ko‘zlar ochila boshlaydi, qanotlarida qoquv patlari, tanasining ayrim qismlarida qoplovchi patlarning murtaklari paydo bo‘la boshlaydi. 5-kunligida ko‘zi va qulqoq teshiklari to‘liq ochiladi. 7-kunligida pat qalamchalari yorila boshlaydi. Boshi qora-kulrang patlar bilan, qorin qismi oqish-malla rangdagi patlar bilan qoplanadi. 9-kunligida qoquv patlarining yelpig‘ichlari paydo bo‘ladi. Tanasining orqa tomoni kulrang patlar bilan qoplanadi. 11-kunligida qoquv va dum patlarida yelpig‘ichlar to‘liq shakllanib bo‘ladi. Tanasining orqa tomoni to‘q kulrang bo‘ladi. 13-kunligida polaponlari uyani tark etadilar va bu davrda ularning o‘rtacha massasi 22,27 g ni tashkil etadi (2-jadval).

### 2-jadval

#### Hind chumchug‘i polaponlari tanasi ayrim qismlarining o‘sishi va og‘irligining oshish sur’ati

Yoshi, (kun hisobida)	Massasi		Tanasining uzunligi		Qanotining uzunligi		Birinchi darajali qoquv patlarining uzunligi		Dum patlarinin g uzunligi		Sevkasining uzunligi		Tumshug'ining uzunligi	
	g	%	mm	%	mm	%	mm	%	g	%	mm	%	mm	%
1	3,3	-	44,4	-	7,4	-	-	-	-	-	7,5	-	2,9	-
3	8,3	74,4	56,5	24,0	11,2	40,9	-	-	-	-	12,1	46,6	3,2	5,9
5	14,3	52,6	70,4	22,0	18,8	51,2	-	-	-	-	15,3	23,7	4,2	27,4
7	18,2	24,0	87,6	21,8	30,1	45,9	4,2	-	3,9	-	17,8	15,0	4,8	15,1
9	22,8	22,5	97,3	10,5	38,5	24,7	19,2	127,8	14,7	94,3	20,1	12,4	5,3	8,9
11	23,2	1,5	105,4	7,9	47,9	21,6	32,3	50,9	21,9	39,8	20,6	2,3	5,6	6,2
13	22,3	-4,1	111,5	5,6	53,8	11,6	42,9	28,4	27,8	23,4	21,4	3,9	6,0	6,5



O‘zbekistonda dala chumchug‘i o‘troq qush hisoblanadi. Turkiston dala chumchug‘ining erkagi bilan urg‘ochisi bir xil rangda. Jinsiy farqlarining maksimal namoyon bo‘lish darajasi qanotining uzunligida bo‘lib, boshqa belgilari ancha kuchsizroq bo‘ladi. Erkagining urg‘ochisidan qanotining uzunligi, ba’zi hollarda esa dumining uzunligi bilan farq qiladi. Boshining butun tepasi jigar rangda. Uning ikki yon tomonida oqchil fonda qora dog‘lar, shuningdek, tomog‘ida uncha katta bo‘lmagan qora rangdagi dog‘i bo‘ladi. Orqasi asosan sarg‘ish-jigar rangda, tanasining pastki tomoni kulrang-oq bo‘ladi [5,7].

Dala chumchug‘i turli xildagi o‘rmonlar, butazorlardagi ochiq joylar, jarliklar, daryo qirg‘oqlari, tog‘lardagi qoyalar va to‘kilma toshlar, o‘tloq va dasht o‘simliklari, suv havzalari qirg‘oqlaridagi qamishzorlarda yashaydi. Shaharlar, qishloqlar, donli,

sabzavot va g‘o‘za ekin maydonlari, uzumzorlar, bog‘lar, axlatxonalar, avtostradalar, EUL ustunlari va temir yo‘llar atroflarida uchraydi [6,8].

Kuzatishlarimizga ko‘ra, dala chumchug‘i asosan antropogen landshaftlarda va juda kam holatlarda jarliklarda uya quradi. Antropogen landshaftlarda ko‘pincha tom tirqishlarida, isitish trubalari orasida, daraxt kovaklarida, ko‘cha chiroqlari ichida uya quradi. Uyalarning o‘rtacha o‘lchamlari quyidagicha: erdan balandligi 331,4 sm, kirish teshigining diametri 51,1 mm, uyaning diametri 146,8 mm, uya lotogining diametri 78,8 mm, uya lotogining chuqurligi 50,4 mm. Dala chumchug‘ining uya o‘lchamlari 3-jadvalda keltirilgan.

Uya tayyor bo‘lgach dala chumchuqlari tuxum qo‘yishga kirishadi. Yoz bo‘yi dala chumchug‘i 2-3 marta tuxum qo‘yadi. A.I.Ivanovning [3, 4] ma’lumotiga ko‘ra Pomir-Oloy tog‘ tizmalari sharoitida arealning yuqori qismida dala chumchug‘i faqat bir marta, pastki qismlarda esa ikki marta tuxum qo‘yadi. O‘rta Osiyoda T.Z.Zohidov va R.N.Meklenbursevlarning [2] ma’lumotlariga ko‘ra dala chumchug‘i bir yilda ikki martadan kam tuxum qo‘ymaydi, ba’zi hollarda esa 3-4 marta tuxum qo‘yishi mumkin.

Dala chumchug‘i polaponlarining tuxumdan chiqishi 2-3 kunni egallaydi. Tuxumdan endi chiqqan polaponlar nimjon va ojiz bo‘ladi.

Bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra dala chumchug‘ining tuxumdan endigina chiqqan polaponining terisi pushti rangda, ko‘zi va qulqoq teshiklari yopiq bo‘ladi. 3 kunligida ko‘zi ochila boshlaydi. Tanasida qoplovchi patlarining murtaklari va qanotida qoquv patlarining murtaklari ko‘rina boshlaydi

### 3-jadval

#### Dala chumchug‘ining uya o‘lchamlari

Nº	Uyaning joylashgan o‘rni	Uyaning yerdan balandligi (sm)	Uyaning diametri (mm)	Uya lotogining diametri (mm)	Uya lotogoning chuqurligi (mm)	Uyaga kirish teshigining diametri (mm)
1	Daraxt yorig‘ida	264	119	75	48	45
2	Daraxt yorig‘da	295	135	86	41	52
3	Tom shiftida	346	124	72	52	50
4	Tom shiftida	312	148	82	46	49
5	Tom shiftida	372	165	73	54	50
6	Tom shiftida	348	140	75	45	48
7	Daraxt kovagida	419	201	90	67	52
8	Tom shiftida	295	142	77	50	63
<b>O‘rtacha</b>		<b>331,4</b>	<b>146,8</b>	<b>78,8</b>	<b>50,4</b>	<b>51,1</b>

5 kunligida ko‘zi va qulqoq teshiklari ochiladi. 7-9 kunligida qoquv patlari va kontur patlarining qalamchalari yorilib yelpig‘ichlar paydo bo‘ladi. 11 kunligida tanasi butunlay pat bilan qoplanadi. 13 kunligida uyani tark etadi va bu davrda uning og‘irligi o‘rtacha 22,25 g ni tashkil etadi (4-jadval).

Tadqiqotlar davomida hind chumchug‘i – Passer Inducus Jard. Et Selby va dala chumchug‘i – Passer Montanus L. biologiyasi bo‘yicha olingan natijalar qiyosiy taqqoslandi (5-jadval) va xulosalandi.

O‘zbekistonda dala chumchug‘i o‘troq qush, hind chumchug‘i uya quruvchi va uchib kelib-uchib ketuvchi tur hisoblanadi. Hind chumchug‘ining uya qurish davomiyligi 3-5 kun, dala chumchug‘ida 2-3 kunni egallaydi. Tuxum qo‘yish intensivligi, uyadagi to‘liq tuxumlar miqdori o‘rganilgan turlarda deyarli bir xil bo‘ladi. Har ikkala tur ham har kuni bittadan tuxum qo‘yadi.

#### 4-jadval

#### Dala chumchug‘i polaponlari tanasi ayrim qismlarining o‘sishi va og‘irligining oshish sur’ati

Yoshi, (kun hisobida)	Massasi	Tanas-ining uzunligi		Qanoti-ning uzunligi		Birinchi darajali qoquv patlarining uzunligi		Dum patlari-ning uzunligi		Sevkasi-ning uzunligi		Tumshu-g‘ining uzunligi	
		g	%	mm	%	mm	%	mm	%	mm	%	mm	%
1	3,7	-	44,8	-	7,5	-	-	-	-	7,5	-	3,0	-
3	8,49	75,2	56,9	23,8	11,1	37,6	-	-	-	11,8	44,9	3,2	5,8
5	13,9	48,8	72,5	23,9	19,4	54,7	-	-	-	15,4	26,1	4,2	26,7
7	18,3	26,8	88,9	20,3	29,9	42,8	4,3	-	3,9	17,7	14,3	4,9	17,3
9	23,1	23,2	97,0	8,8	37,7	23,0	18,5	94,4	14,7	95,3	19,9	11,4	5,3
11	23,2	0,43	105,7	8,6	48,3	24,7	35,0	62,8	22,3	40,9	20,7	3,8	6,7
13	22,4	-0,44	114,6	7,9	54,1	11,1	44,6	23,9	28,8	25,6	20,9	1,2	6,0

#### 5-jadval

#### Hind chumchug‘i va dala chumchug‘ining uya o‘lchamlarining qiyosiy tahlili

Nº	O‘rganilgan turlar	Uyaning yerdan balandligi (sm)	Uyaning diametri (mm)	Uya lotogining diametri (mm)	Uya lotogoning chuqurligi (mm)	Uyaga kirish teshigining diametri (mm)
1	Hind chumchug‘i	257,9	134,1	84,0	56,9	61,6
2	Dala chumchug‘i	331,4	146,8	78,8	50,4	51,1

Uyadagi to‘liq tuxumlar soni dala chumchug‘ida 4-5 ta, bo‘lib har bir uyaga o‘rtacha 4,5 tadan tuxum to‘g‘ri keladi, hind chumchug‘ida 3-6 ta, har uyaga o‘rtacha 3,9 tadan tuxum to‘g‘ri keladi. Har ikkala tur ham tuxumlarini bosib yotishga bиринчи tuxum qо‘yilgandan boshlab kirishadi. Tuxum bosish intensivligi har ikkala turda ham deyarli bir xil bo‘ladi. Tuxum bosishning dastlabki kunlarida tuxum bosish zichligi unchalik yuqori bo‘lmasdan, inkubasiya davrining oxiriga borib tuxum bosish intensivligi oshadi. Inkubasiya davri har ikkala turda ham 11-12 kun davom etadi. O‘рганилган турларда полапонларинг uyada rivojlanish sur’ati deyarli bir xil bo‘lib, dala chumchug‘i polaponlarining uyada rivojlanishi mobaynida massasi dastlabki massasiga nisbatan o‘rtacha 5,5, tanasining uzunligi 2,5, qanotining uzunligi 6,75, dumining uzunligi 7,3 baravarga oshadi. Hind chumchug‘i polaponlarining uyada rivojlanishi mobaynida massasi o‘rtacha 5,8, tanasi 2,5, qanoti 7,7, dumi 7,0 baravarga oshadi. Dala chumchug‘i polaponlari uyani 12-14kunligida, hind chumchug‘i polaponlari 14-15 kunligida tark etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Богданов О.П. Ўзбекистон ҳайвонлари. – Тошкент, «Ўқитувчи». -1983.
2. Захидов Т.З. Мекленберцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии. - Тошкент, Ўқитувчи, 1969, Т. I. – 428 с.
3. Иванов А.И. Птицы Таджикистана. - М.-Л., 1940. – 300 с.
4. Иванов А.И. Птицы Памиро-Алая. – Л.: Наука, 1969. – 448 с.
5. Карташев Н.Н. Систематика птиц. Учебное пособие для университетов. М.: Высшая школа, 1974, 367с.
6. Мамашкуров А.У. Жабборов А.Р. Экология и практическое значение индийского воробья в Ферганской долине Узбекистана // Ҳайвонлар экологияси ва морфологияси. - Самарқанд, СамДУ нашри, 2006. - Б. 75-78.
7. Мамашкуров А.У., Жабборов А.Р. Дала чумчуғининг уялаш экологияси // Ҳайвонлар экологияси ва морфологияси. - Самарқанд, СамДУ нашри, 2013.